

## IV SHO'BA

# SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR KRAUDFANDING PLATFORMALARIDA QO'LLANILISHI: ISTIQBOLLAR VA XAVFLAR

---

### JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI TIZIMIDA RAQAMLI BOSHQARUV

*Allayarova Mastura Kudratullayevna*  
*Guliston davlat universiteti dotsent v.b.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 iyun 2025 yildagi "Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-105 son Farmoni<sup>190</sup>ga asosan 2027-yildan G'aznachilik xizmati qo'mitasi hamda Pensiya jamg'armasining hududiy bo'limlari tugatilib, ularning o'rnida ixcham xizmat ofislari tashkil etiladi.

Farmonga ko'ra, 2027-yildan ushbu idoralarning tuman va shahar bo'limlari faoliyati tugatilib, 1-3 shtat birligidan iborat ixcham xizmat ko'rsatish ofislari tashkil etiladi. Ularga har bir tuman va shaharlardagi biznes jarayonlari va funksiyalar qamrab olinadi. 2026-yilning 1-iyulidan g'aznachilik tizimidagi jarayonlarni avtomatlashtirish hisobiga Raqamli g'azna tizimi joriy etiladi. Tizim quyidagilarga qaratilgan: biznes-intellekt (Business intelligence) texnologiyalari orqali ma'lumotlarni tahlil qilish, likvidlikni ta'minlashda qisqa va uzoq muddatli prognozlarni ishlab chiqish hamda SI texnologiyalari asosida g'aznachilik operatsiyalarini amalga oshirishda inson omilini kamaytirish; chet el valyutasidagi operatsiyalarni raqamlashtirgan holda amalga oshirish uchun Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimini Butunjahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar hamjamiyati (SVIFT) tizimiga integratsiya qilish; davlat xaridlari va to'lov operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qonunchilik buzilishi bilan bog'liq moliyaviy xavflarni «E-risk» dasturiy majmuasida avtomatik aniqlash va ular asosida ogohlantirish hamda xabardor qilish mexanizmini joriy qilish.

2027-yilning 1-dekabridan "Mening pensiyam" onlayn xizmati joriy etiladi. U orqali fuqarolar o'z pensiya miqdorini ish staji va ish haqlari to'g'risidagi ma'lumotlari asosida oldindan aniqlashlari mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, pensiya ta'minotiga oid barcha xizmatlar to'liq proaktiv, elektron hamda interaktiv shaklga o'tkaziladi. Bundan tashqari, 2026-yilning 1 dekabridan pensiyalarni to'lashda elektron imzo va biometrik identifikatsiya qilish (Face-ID)

---

<sup>190</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 iyun 2025 yildagi "Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-105 son Farmoni.

tizimi yo'lga qo'yiladi, Call-markazga esa sun'iy intellektdan foydalanish joriy etiladi<sup>191</sup>.

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyotning shiddatli taraqqiyoti pensiya ta'minoti tizimini tubdan isloh qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Blokcheyn, sun'iy intellekt hamda katta ma'lumotlar (Big Data) kabi ilg'or texnologiyalarning sohaga tatbiq etilishi pensiya aktivlarini boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini optimallashtirish bilan bir qatorda, tizimning ochiqligi va unumdorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Raqamli moliyaviy platformalar yordamida aholi o'z jamg'armalari holatini masofadan turib kuzatish, mavjud investitsiya loyihalarini tahlil qilish hamda o'z mablag'larini oqilona yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda raqamli iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi ijtimoiy himoya, xususan, pensiya ta'minoti tizimini ham qamrab olmoqda. Klassik (an'anaviy) modellar bilan qiyoslaganda, pensiya jamg'arib borish tizimi fuqarolarning shaxsiy jamg'arma hisobvaraqlarida kapitalni shakllantirish, ushbu aktivlarni samarali investitsiya qilish hamda pirovardida, keksayish davrida moliyaviy mustaqillik va barqarorlikni kafolatlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining raqamli transformatsiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Elektron pensiya hisobvaraqlari – subyektlarga o'z jamg'arma mablag'larining dinamikasini real vaqt (online) rejimida monitoring qilish va moliyaviy oqimlar ustidan doimiy nazoratni o'rnatish imkoniyatini ta'minlovchi raqamli vositadir.

Blokcheyn texnologiyalari pensiya aktivlarining daxlsizligini kafolatlash hamda tizimdagi byurokratik to'siqlar va korrupsion xavf-xatarlarni bartaraf etishning fundamental asosi hisoblanadi.

Onlayn xizmatlarning kengayishi – pensiya ta'minoti subyektlariga masofaviy xizmat ko'rsatish infratuzilmasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bunda elektron hujjat aylanishi va integratsiyalashgan to'lov tizimlarining joriy etilishi byurokratik jarayonlarni qisqartirish hamda foydalanuvchilar uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratish imkonini beradi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya qilish orqali pensiya aktivlarining o'sishini ta'minlaydi. Investitsiya rentabelligi pensiya fondlari samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Raqamli transformatsiya darajasini turli ko'rsatkichlar orqali o'lchash mumkin, masalan, pensiya xizmatlarining onlayn platformalar orqali qamrovi, elektron hisobvaraqlar soni yoki pensiya tizimi uchun yaratilgan axborot tizimlari integratsiya darajasi. Jahon miqyosida so'nggi yillarda e-hukumat infratuzilmasining rivojlanishi pensiya sohasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilgi *UN E-Government Survey* hisobotiga

---

<sup>191</sup> <https://www.advice.uz/oz/document/4153?keyword=Pensiyaga%20chiqish>

ko'ra EGDI global o'rtacha qiymati **0,6382** ga yetgan. Bu 2022 yilga nisbatan oshganini ko'rsatadi<sup>192</sup>.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bugungi kunda ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy jamg'arma hisobvaraqlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu hisobvaraqlarga majburiy yoki ixtiyoriy tartibda pul mablag'lari kiritiladi.

Mazkur tizimda ish beruvchilar va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan pensiya badallari jamg'armaning asosiy moliyaviy resurs bazasini shakllantiradi. Tizimning barqarorligi majburiy badallar orqali kafolatlansa, ixtiyoriy badallar fuqarolarga keksayish davrida yuqoriroq daromad darajasini ta'minlash imkonini beradi. Ushbu mablag'larning tizimli hisobi va monitoringi shaxsiy pensiya hisobvaraqlarining raqamli analoglari orqali yuritiladi. Ikkinchi tomondan, pensiya aktivlarining shakllanishi faqatgina badallar bilan cheklanib qolmay, balki ularni turli investitsiya instrumentlariga yo'naltirish orqali qo'shimcha qiymat yaratishni ham nazarda tutadi. Ushbu mexanizm kapitalning o'sishini ta'minlovchi foizli daromadlar generatsiyasiga asoslanadi. Jamg'armaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi bevosita investitsiya siyosatining samaradorligiga bog'liq. Davlat kafolati jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ishonchliligini ta'minlovchi fundamental ustuvorlikdir. Bu mexanizm shaxsiy hisobvaraqlardagi aktivlarning daxlsizligini himoya qilish va moliyaviy yo'qotishlar xavfini minimallashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ushbu tizim keksayish davrida barqaror daromad manbaini yaratuvchi muhim iqtisodiy vositadir. Tizim unumdorligi shaxsiy jamg'armalar, investitsiya daromadliligi va davlat majburiyatlari o'rtasidagi mutanosiblikka (balansga) tayanadi. Kelgusida aholini ixtiyoriy badallarga rag'batlantirish va ularning moliyaviy savodxonligini yuksaltirish strategik vazifa bo'lib qoladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 iyun 2025 yildagi "Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-105 son Farmoni.*

2. *Ravshanov L. B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida jamgarib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi va uning istiqbollari. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 3 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ.*

3. <https://www.advice.uz/oz/document/4153?keyword=Pensiyaga%20chiqish>  
[h.](#)

---

<sup>192</sup> Ravshanov L. B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida jamgarib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi va uning istiqbollari. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 3 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ.